

1-Oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni

www.tongyulduzi.uz



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi

2010-yil
27-sentabr
N:39
(66788)

ISSN – 2010-6092

Muharrir so‘zi

Ulug‘likka munosibsiz!

Ustoz! Men Sizing tabarruk nomingizni bugun yana hurmat va ehtirom bilan tilga olyapman, Sizdan juda katta qarzdorligimni va bu qarzni umr bo‘yi uzolmasligimni ham bilaman. Ko‘zi ochilmagan qo‘zichoqdek bag‘ringizga talpinib borgan edik, rosti, avvaliga o‘qish-yozishga qiziqdik, Siz bizga qalb gavharini berdingiz, bu gavhar bilan dunyoni ilg‘ashga harakat qildik: tezda oq-qorani ham ajrata boshlab, sabza urgan mo‘ylabimizga quvonib boqdik, eh, biz yoshlar... goho g‘o‘rlik ham qildik, darslardan qochdik, vaqtning qadriga yetmadik. Shunda Siz yana yo‘limizni to‘sib chiqdingiz:

– O‘qi, bolam, bir kun menga rahmat aytasan!

– Nahotki, – dedik, – rahmat aytish nima degani, – dedik g‘o‘rlarcha. Katta yo‘lga chiqqach, bu hikmatning qadriga yetdik.

Ko‘pni ko‘rgan otaxon muallimiga salom bermay o‘tib ketgan o‘g‘ilni savolga tutganini ko‘rdim:

– Nega ustozingizga salom bermadingiz, jon bolam?

O‘g‘il xo‘mraydi:

– Kecha menga past baho qo‘ydilar!

– Nega?

– Masalani yechmagan edim!

Ota o‘g‘ilining qo‘lidan yetaklab, muallimining uyiga bordi va: – Meni kechiring, ustoz, o‘g‘limizdan xato o‘tibdi, ayb bizda, – deya otadek ulug‘ inson katta boshini egdi. Muallim qizardi:

– Biz yoshlarga ta‘lim berolmay qolyapmiz shekilli, bizni ham kechiring!

Ota uni bag‘riga bosdi: – Siz ulug‘ insonsiz, meni o‘qitgansiz, ayb bizda, bizni kechiring, – dedi u yana ming bir xijolatda va o‘g‘liga yuzlandi: – Dunyoda men uchun ustozdan ulug‘ inson yo‘q! Siz ham, o‘g‘lim, shunday e‘zozlang bu zotni!

Siz, aziz inson, fidoyi inson ana shunday ulug‘likka munosibsiz, – deb turganlar qancha?!

Sizing qadoq qo‘llaringizdagi har bir chiziq – bir hikmat, har bir ajin – bir dunyo! Biz ularni ta‘riflashga o‘jizmiz.

(Davomi 2-betda)



*Fidoyi ustoz,
O‘zbekiston
Qahramoni Mavluda
Ismatova shogirdlari
davrasida*

MUALLIM

(Ustozim Feruza opaga)

*Nurli manzillarda poyi-piyoda,
Bir kimsa boradi – qalbida quyosh.
Lolaqizg‘aldoqlar unar poyida,
Har bitta odimi asrga qiyos.*

*Siz – o‘shal yo‘lovchi, bardoshi metin,
Qalbiga jo bo‘lgan mehr-u matonat.
Issiq quchog‘ida quyoshni tutib,
Ulashib borguvchi sehr-u shafolat.*

*Ajab!
Sochingizda qormi yo qirov?
Ko‘hna armonlarin yonib so‘zlaydi.*



*To‘rt tomon tortqilar xayollar – asov,
Baxtga esh munavvar tongni izlaydi.*

*Yo‘qdir hech soniya, bo‘lmagay hech on –
Sizdek buyuk zotning ta‘biri ojiz.
Shuhrati beqiyos, dovrug‘i osmon,
Beshak ezgulikdan yaralgan tojsiz...*

*Ko‘ngil daftarimning eng avvaliga
Zo‘r hayrat ichida bir kalom yozdim:
«Ilm-u ma‘rifatning hur osmonida
Siz mangu porlaysiz, buyuk muallim!»
Dilafro‘z XUDOYBERDIYEVA*



Andijon viloyati «Muruvvat uyi» rahbari Olimjon NASRIDDINOV bolalarning mehribon ustosi.

Ulug'likka munosibsiz!

(Boshi birinchi betda)

Bir voqeani ko'p tilga olamiz. Yana takrorlashdan andisha qilmaymiz.

Otda kelayotgan Hazrati Amir Navoiy bobomiz bolakayni ko'rib, darhol egardan tushibdilar-da, unga ta'zim qilibdilar.

Ul zotga hamrohlik qilib kelayotgan shogirdlaridan biri:

– Sizdek ulug' zotning bu sa'y-harakatida qanday ma'no bor? – debdi.

Hazrati Amir Navoiy bobomiz yoqimli jilmayib:

– Bu shirin bolakay muhtaram ustozimizning aziz o'g'illari bo'ladi, – deya javob qilgan ekan.

So'z mulkining sultoni, tengi yo'q ijodkor, daho Hazrati Navoiyki ustozning o'g'liga shunchalik yuksak marhamat ko'rsatgan ekan, biz aziz o'qituvchilarimizga har kuni qulluq qilsak, oz ekan-da. To'g'ri, oz, juda oz!

E'tibor bermagan ekanman, qaysi safar o'qituvchim bilan suhbatlasha turib, u kishining bir umr qalam tutgan barmoqlariga ko'zim tushdi-yu, g'alati bo'lib ketdim: bosh va ko'rsatgich barmoq uchlari qayrilgan va qavargan edi. Biz shirin uyquda yotganda, ertangi darslar tashvishida necha katta-kichik kitoblar-u, gazeta-jurnallarni titib, ko'z nurlarini to'kib, barmoqlarini qavartirib,

go'yoki igna bilan quduq qazigan o'qituvchimga yanada mehrim oshdi. O'qituvchilik qiyin kasb, bolalarga bir soat dars berib ko'rgan kishi borki, bu sermashaqqat mehnatning qadriga yetadi. Bir paytlar ustozlarga nopisandlik bilan qaragan sobiq o'quvchi borki, bugun o'sha g'o'rligidan uyaliy yer chizadi.

O'qituvchining qadoq qo'llari!
Yuz ming sajda qilsak, oz! To'g'ri, juda oz!

Bir bolakayning tug'ilgan kuniga bordik. Hamma turli-tuman qimmatbaho sovg'a-salomlar bilan keldi. Muallim esa... muallim «O'zbek xalq ertaklari» va yana Oybek domlaning «Navoiy»si bilan keldi.

Juda olifta kiyingan opaxon labini burdi.

Oradan bir necha yil o'tib, yana o'sha xonadonda bo'ldim va o'sha kitoblarni kitob javonining eng yuqorisida ko'rdim. O'sha kunning aybdori kitoblarga qarayotganimni sezib, shunday dedi: «Bu ustozim sovg'a qilgan o'sha kitoblar, institutga kirish imtihonida, testda naq shu kitoblardan savol tushdi, aka, yaxshiyamki, ularni o'qigan ekanman, mana, bugun talabaman, ustozimga ming rahmat!»

– Boshqa sovg'alar-chi? – dedim nozik joyidan tutib.

Yigit sodda, lo'nda javob qildi:

– Boshqasi qolmadi, aka! Nima olib kelishgani esimda ham yo'q!

O'qituvchining sovg'asi: kitob – olam oftobi, bu oftob sira so'nmaydi, kim-ki shu oftobga intilsa, baxt, obro'-e'tibor, sokin hayot va eng muhimi, qadr topadi. O'qituvchi ana shunday qadr topib yashayotgan inson.

Haq gapni aytish kerak, yurtimiz mustaqilligi tom ma'noda o'qituvchilari-mizning mavqecini har tomonlama yuqori pog'onaga ko'tardi, bugun ustoz ekanligidan mag'rurlanib mehnat qilayotgan fidoyi o'qituvchilar bilan suhbatlashganda, ularning baxtiyorligidan mamnun bo'lasiz: o'n to'qqiz yil, yigirma yoshga qadam qo'ydi yurtim, bugun qahramon degan yuksak unvonga, davlatimizning bir qancha orden va medallariga sazovor bo'lgan o'qituvchi-ustozlarni ko'rganda, bahri dilingiz yashnaydi, shu kunlar ham kelar ekan-ku, ustozim ham qadr topar ekan-ku, deb yuborasiz beixtiyor.

Mamlakatimizda istiqloqlning dastlabki kunlaridanoq yosh avlodning tarbiyasiga alohida e'tibor berilib, bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Buguni kunda hech bir qiyoslab bo'lmaydigan mislsiz ishlarni amalga oshirishda tashabbuskor va hayotini yoshlar tarbiyasiga bag'ishlagan o'qituvchilarimizning xizmatlari katta bo'ldi, albatta. «Ana shu ulkan ishlarda men uchun suyuqli bo'lgan ustozimning xizmatlari bor», deya baralla gapirayotgan o'smir ukajon, ustozingni bizning nomimizdan ham tabriklab qo'yish, qadoq barmoqlarini ko'zingga surtish esingda bo'lsin. Bugun maktabingga gullar ko'tarib borsang – yarashgay, bu kun ustozlarni olqishlasang, qalbing, diling obod bo'lgay!



Farg'ona shahridagi 40-ixtisoslashtirilgan bog'cha-maktab majmuasi direktori Galina opa Akopjanova hamkasbi bilan.



Uchtepa tumanidagi 197-maktab o'qituvchilari Ma'suda opa Ahmedova va Dilorom Otamammedova haqida gap borganda, «O'z kasbining ustalari», deya ardoqlashadi.

USTOZNI QUYOSH DEB ATADIM



joiz bo'lsa taqlidimiz ham yashirin. Onajonim: «Sening maktabdagi oyijoning ustozingdir», deydilar. Shuning uchun ham men ustozimning aytganlarini so'zsiz bajarishga intilaman.

Ustozim – maktabimiz osmonidagi quyoshimiz doimo porlab tursin!

Oyshaxon RO'ZMETOVA,
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 5-umumta'lim maktabining 7-«D» sinf o'quvchisi

Boshi o'rgan soslarda

– Barmoq vaznida yozilayotgan g'azallarning aruzdan farqi kattami?

– Albatta, har ikki vaznning o'z o'lchovi, o'z qonun-qoidalari bor. G'azal bu – aruz vaznining janri, shuning uchun barmoqda yozilgan she'r g'azal emas.

Barmoq vaznida o'lchov birligi – bo'g'in, aruzda – hiyo.

Boshi o'rgan soslarda

Ya'ni, aslan barmoq – sillabik she'r vazni, aruz esa tonik she'r turiga yaqinroq turadi. Faqat Yevropa xalqlari adabiyotiga xos tonik she'r urug'li va urug'siz hijolar tartibi bilan belgilansa,

aruzda cho'ziq va qisqa hijolar tartibi

she'rni vaznga soladi. Shu bois, masalan, Navoiy g'azallarini

o'qiganda, hijolarning cho'ziqligi va qisqaligiga amal qilinmas ekan, she'rning nafosati namoyon bo'lmaydi, hatto she'rnga o'xshamay qoladi.

Ikkinchidan, misralar uzunligi 9 va undan ko'p bo'g'indan iborat bo'lsa, barmoq vaznida turoq talab etiladi, aruzda esa turoq bo'lmaydi (istisno tarzda uchrashi mumkin), balki misralar ruknlardan tashkil topadi.

Har ikki vazni qiyoslash uchun misollarga murojaat etaylik:

Yor ketdi-yu ' yonimdan, " azobi bun 'da qoldi,
Dard o'rtadi ' jonimni, " tezobi bun 'da qoldi.

Bunda qoldi ' tonglarim " yashirguvchi ' bulutlar,
Vaslin quyo 'shin gizlab " kazzobi bun 'da qoldi.

Jon tomirim taranglab " turganida o'kinchlar,
Ming maqomga o'ynatib "–muzrobi bunda qoldi...

Abdulla A'ZAMOV

ARUZ BAHSI

(«Istiqloq umidlari» almanaxi, 2000).

– She'r aa, ba, va... tarzida qofiyalangan bo'lsa-da, ammo g'azal janriga mansub emas. Masalan, misralar boshida mustaf'ilun (- -v-) va fo'ilotun (-v- -) qolipidagi ruknlar aralashib keladi, to'rtinchi misrada oltita cho'ziq hiyo (ostiga chizilgan) ketma-ket kelyaptiki, bu aruz

Aziz shahar markazida joylashgan maktabda tahsil olayotganidan juda xursand. Undan qaysi maktabda o'qiyсан, deb so'rasangiz, faxrlanib:

– Shahar markazidagi 59-maktabda! – deya javob beradi.

Haqiqatan ham Azizga mazza! Darslari tamom bo'lgach, yo'l-yo'lakay O'zbekiston Milliy drama teatri, sirk, kitob rastalari, turli do'konchalar, internet klublari yonidan o'tib, uyiga qanday yetib kelganini ham

nimalarnidir tushuntirib beryapti, – deya Azizdan oldin o'zi yugurib ketdi.

Rastaga yaqinroq borib sotuvchining qiziqarli so'zlariga quloq tutishdi:

– Bolalar, ko'ryapsizmi, mana bu rastadan «O'zbekiston», «O'qituvchi», G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbao uylarida chop etilgan ko'plab kitoblar joy olgan. Bundan tashqari, buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bekning

o'y o'tdi.

Uyga kirishi bilan oshxonada kuymalanayotgan onasining oldiga yugurib bordi-da, qo'lidagi kitobni ko'rsatib:

– O'yijon, qarang, mana bu kitobni o'qigan odam katta xazinaga ega bo'lar ekan. Shu kitobni o'qib chiqsam, rostdanam boy bo'lib ketamanmi? – deya onasini savolga tutdi.

Onasi kitobni qo'lga olib, biroz o'ylanib qoldi va o'g'lining qo'lidan yetaklab, uyga olib kirdi. Kitob javonidan bir kitobni olib, uning sahifalaridagi tagiga chizib qo'yilgan so'zlarni Azizga

ko'rsatib:

– Sen endigina 5-sinfga o'tding. Mana bu so'zlarni o'qi, savolingga javob topasan, – deya kursiga borib o'tirdi.

Aziz kitobni qo'lga olar ekan, beixtiyor uning nomiga ko'z yugurtirdi va pichirlab «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch», deya onasi ko'rsatgan so'zlarni o'qiy boshladi:

– Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalari tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasi saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, kimyo va boshqa sohalariga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir...

Biroz sukutdan keyin Aziz onasiga: – Sotib olgan kitobimning o'zi xazina ekan-da, o'yijon?! – dedi. Onasi Azizni astagina quchib:

– Bo'lmasam-chi, yaxshi kitob – ulkan xazina. Bugungi xarid qilgan kitobing ham bir qop oltin teng. Ana shunday «qop-qop oltinlar»ni yig'aversang, bir kun kelib, ulkan xazina egasiga aylanasan, bolam, – deya peshonasidan o'pib qo'ydi.

GULYUZ

Ustoz haqida so'z

MENING XULOSAM

Bugun barvaqt uyg'ondim. Havo ancha salqinlabdi.


Beixtiyor yozning issiq kunlari xayolimdan o'tdi...

Ta'limning birinchi o'yini «Avtomobilchi» nomli oromgohda o'tkazib,

keyingi ikki oyda uy ishlariga ko'maklashdim, badiiy adabiyotlar o'qidim. Xudoyberdi To'xtaboyevning «Besh bolali yigitcha» va «Mungli ko'zlar» asarlarini o'qib, hayotga bo'lgan sadoqatim yanada ortdi. Tinch va farovon zamonda yashayotganimdan xursand bo'ldim. Shularni o'ylab, biz – yosh avlod bilimimiz bilan yurtimiz ravaqiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak, degan xulosaga keldim.

Fursatdan foydalanib, barcha ustozlarni O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbidan tabriklayman!

Davronbek SODIQOV,
Toshkent shahridagi
126-maktabning
9-«A» sinf o'quvchisi



BIR QOP OLTIN TOPGAN BOLA

adabiyot, tarix, axloq, falsafa, tibbiyotga oid nodir asarlari ham bor, – deya sotuvchi bir kitobni Azizning qo'lga tutqazib qo'ydi.

Aziz kitobni qo'lga olib, uni varaqlay boshladi. Kitobning

birinchi sahifasida yozilgan so'zlar unga ma'qul keldi shekilli, do'sti Abdulbositga:

– Qara, mana bu kitobda Abdurahmon Jomiyning «Kitoblari avlodlardan avlodlarga eng qimmatbaho bilimlar xazinasi yetkazib berish maqsadida vaqt va zamon ummonida kezib yuruvchi kema misolidir», degan so'zlari yozilgan ekan. Demak, bu kitobni o'qib chiqsak, katta xazinaga ega bo'larkanmiz-da, a? Kel, unda shu kitobni sotib olamiz.

– Mayli, xazinaga ega bo'lamizmi, yo'qmi, bilmayman-u, har holda uydagilar kitob sotib olganimizni bilishsa, xursand bo'lishlarini aniq bilaman.

Aziz cho'ntagidagi bor puliga kitobni sotib oldi va xayolidan: «Ishqilib, uydagilar shuncha pulga shu bittagina kitobni sotib oldingmi?» deya urishishmasin-da, degan

sezmay qoladi. Ba'zida afishalarda yozib qo'yilgan yangi teatr tomoshasiga kirgisi kelsa, ba'zida sirk tomoshalarini ko'rgisi keladi. Bugun esa dars tugagach, tushlik uchun berilgan puliga internet klubida o'yin o'ynamoqchi bo'ldi. Do'stlari bilan shoshib klubga kirib, bo'sh joy topolmaganidan kayfiyati tushib ketdi. Ortiga qaytar ekan, kompyuterlarda turli o'yinlar o'ynayotgan bolalarga judayam havasi keldi-da, do'sti Abdulbositga:

– Mayli, bo'sh joy bo'lmasa, ko'chalarni tomosha qilib uyga ketamiz, – dedi.

Ikki do'st yo'lda ketayotib, kitob rastasi yonida to'planib turgan bolalarga ko'zlari tushdi. Shunda Abdulbosit:

– Aziz, yur-chi, anavi kitoblarni bir ko'raylik. Qara, sotuvchi bolalarga

vazniga begona. Shuningdek, azob so'zi kazzob so'ziga barmoqda qofiyadosh, aruzda esa qofiyadosh bo'lolmaydi, vazni ham buzadi – biri fa-ul qolipida, ikkinchisi fa'-lon qolipida. Qolaversa, kazzob (yolg'onchi) va kizb (yolg'on) so'zlari chalkashtirilgan, nimaning (yoki kimning) kazzobi qolgani ham mujmal.

Boshqa tomondan, she'r 7+7 turog'i bilan yozilgan. Shuning uchun u aslida barmoq vazniga xos intonatsiya bilan o'qiladi:

*Yor ketdi-yu yonimdan,
azobi bunda qoldi,
Dard o'rtadi jonimni,
tezobi bunda qoldi.*

*Bunda qoldi tonglarim
yashirguvchi bulutlar,
Vaslin quyoshin gizlab
kazzobi bunda qoldi.*

*Jon tomirim taranglab
turganida o'kinchlar,
Ming maqomga o'ynatib
muzrobi bunda qoldi....*

Barmoq vaznida yozilgan «g'azal»larning aksariyati mana shu yo'sinda tadrij qilinishi – baytlar to'rt misrali bandlarga aylantirilishi mumkin.

(Baytlar gazeta ustuniga sig'masa, shu tarzda chop etilgan «g'azallar» oz emas.) Shunda darhol taajjub uyg'otadigan holat yuzaga keladi: «g'azal» degani – har bandi to'rt qatorli oddiy she'rning o'zginasi ekan-da? Hatto tuzukroq qofiyalanishi ham shart emas ekan. Axir barmoq vaznida to'rt misrali bandlar kamida **bava** tarzida, o'zini hurmat qiladigan shoir she'rda esa **aaba**, **aaab** yoki **abab** tarzida qofiyalanadi, nahot g'azal bitish barmoq vaznida she'r yozishdan jo'nroq ish bo'lsa?

Yo'q, albatta. Aruzda cho'ziq va qisqa hijolarning qat'iy tartibda takrorlanishi faqat shu vaznga xos bo'lgan ohangdorlikni, ta'bir joiz bo'lsa, «ohang qofiya»sini vujudga keltiradi. Buni anglash uchun Boburning mana bu nafis g'azaliga murojaat etamiz. Uning har misrasi 4+3+4+3 hijoli ruכלariga bo'linadi:

Bobur bu ravon g'azalni xuddi havaskor g'azalnavislarga dars bo'lsin deya namuna sifatida yozganday.

Xullas, har bandi ikki misra, misralari **aa**, **ba**, **va...** tartibida qofiyalangan she'r hali «g'azal» degani emas. Bunga yana bir dalil: **har qanday**

to'rt misradan iborat she'r ruboiy bo'lavermaydi.

To'rtlik aruzda ham, barmoqda ham, sarbastda ham yozilishi mumkin. Qofiyalanishi **aaan** dan tortib **abvg** (oq she'r)gacha bo'la oladi. Misralar uzunligiga ham, hatto vazn o'lchoviga ham chek-u chegara qo'yilmaydi – «to'rtlik», vassalom. Masalan:

Olib boshin ketmoqdadir oy
Tog'-la yulduzlar ham
Oy nuri bir-la

Har ne mumkin bu kecha.
(«Jahon adabiyoti», 2004, noyabr)

Ruboiy esa aruz janri, u maxsus vaznlarda yoziladi. Navoiy va Boburning aruz haqidagi risolalarida ruboiy vazniga alohida to'xtaliganining sababi ham shunda. Hozir bu mavzuga chuqurlashishning mavridi emas. Lekin «aaba tarzda qofiyalangan nomiki to'rtlik ruboiy bo'lavermaydi» degan tasdiq mohiyatan «**aa**, **ab**, **av...**» tarzida qofiyalangan she'r – bu hali g'azal emas» degan tasdiq bilan bir kuchga ega.

(Davomi bor)



*Yoshlik bamisoli
xazina, undan istagan
boylikni topish mumkin.*

O'zbek maqoli

*Hayot – insonga berilgan
eng oliy ne'mat. Uning oltin davri
YOSHLIKdir. 16 yosh esa bolalik bilan katta
hayot orasidagi ko'prik vazifasini bajaruvchi davr
sanaladi. Siz hozir ayni shu navqiron
yoshdasiz.*

SHE'R YOZSAK, AJABLANMANG...

O'smirlik! Bu yoshda inson hayotga yangidan kelgandek bo'larkan, go'yo. His-tuyg'ulari, ichki kechinmalari o'zgararkan. Atrofdagi voqeahodisalarga o'zgacha nigo bilan qaraydigan, ta'sirchan bo'lib qolarkan. Kimlardir vazmin tortib, o'ychan bo'lib qolgan, yana kimlardir aksincha, bir gapirib, o'n kuladigan odat chiqargan. Yigitlarimiz badjahl, jizzakiroq, qizlar esa injiq, tortinchoq bo'lib qolishgandek. Borliq ko'zimizga yanada go'zalroq bo'lib ko'rinyapti. O'ylanib qolaman, buning boisi nimada ekan? Javobni ham o'zim topgandek bo'laman. O'tish davri sanaladigan bu paytda qalblarda ajib his-tuyg'ular junbushga keladi. Inson ana shu tuyg'ulami to'g'ri yo'naltira olsagina, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. Agar aksi bo'lsa-chi?!

Sinfdoshimiz bir qizni yoqtirib qoldi. Xayoli, maqsadi, orzulari o'sha qizga bog'landi. O'zi eng a'lochi, faol, hammami ortidan ergashtira oladigan, qo'ying-chi, sinfimizning eng oldi o'quvchisi edi. Hech kimga qo'shilmaydigan, kamgap, odamovi bo'lib qoldi. Eng achinarlisi, o'qishni ham tashlab qo'ydi. Orzulari sarobga aylandi...

Keling, birgalikda o'ylab ko'raylik: o'sha do'stimiz yosh qalbiga mehmon bo'lgan bu ajib tuyg'u sabab turmush tarzini o'zgartirmay,



aksincha, unga bir maqsad deb qaraganida, voqealar boshqacha rivoj topardi. Vaholanki, bu yoshda har bir yigit-qiz shunday ahvolga tushishi mumkin. Bu yoshda o'zimizni juda kuchli his etamiz. Qo'limizni qayerga cho'zsak, yetadigandek tuyuladi. Qo'lga bir umr qalam tutmagan o'smirlar she'rlar yozishsa, ajablanmang.

Mustaqil hayot bo'sag'asida turgan aziz tengdoshim, siz-u bizga ajib va betakror his-tuyg'ular, yangi-yangi orzu-umidlar, maqsadlar in'om etuvchi 16 YOSHLIGIMIZGA XUSH KELIBSIZ!

Mirkomil UMMATQULOV,
yosh muxbir



Inson hayotida biror yutuqqa erishsa, quvonchini o'z yaqinlari bilan o'rtoqlashgisi kelarkan. Mening hayotimda ham yaqinda quvonchli voqea ro'y berdi. Shahrimizning eng nufuzli bilim dargohlaridan biri To'rtko'l Bank kollejining huquqshunoslik fakulteti talabasi bo'lganim haqidagi xushxabar 16 yoshga kirgan kunimga ajoyib sovg'a bo'ldi. Bu yil kollejga qabul qilingan 390 nafar o'quvchilar qatorida men ham borligimni eshitib, quvonganimni bir ko'rsangiz edi... Shodligimni «Tong yulduzi» o'quvchilari bilan baham ko'rgim va kollejimiz haqida qisqacha so'zlab bergim keldi.

MEN ENDI TALABAMAN!

1996-yilning sentabr oyida ishga tushirilgan kollejning ilk qaldirg'ochlari qatorida mening akam ham bor. Akamdan kollejda o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida eshitib, juda havasim kelgan va shu dargohda o'qishni niyat qilib qo'ygandim. Kollejimiz tumanning eng so'lim, xushmanzara yerida qad rostlagan. Hovlisiga gilamdek to'shlagan rango-rang gullarning ko'rki, muattar bo'yi ko'zlarni quvnatib, allanechuk huzur baxsh etadi kishiga. Sersoya daraxtlarning ko'pligini aytmayisizmi?! Go'yoki, men sendan balandroqman, ko'rkamroqman, deya bahslashayotgandek samoga bo'y cho'zib, viqor bilan turishibdi.

Kollejimiz ichkarisidagi shart-sharoitlarni esa qay birini aytay?! Zamonaviy o'quv anjomlari bilan jihozlangan o'quv xonalari, to'g'araklar uchun mashg'ulot xonalari, sport zali, maydonchasi,

kattakon kutubxona bizning ixtiyorimizda. Mustaqillik bayrami hamda Bilimlar kunida kollejimiz direktori Rustam aka Otaboyev barchamizni qizg'in tabriklab, ajoyib nutq so'zladilar. Ustozning egzu tilaklari qalbimizdagi havasni, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshirdi. Barchamizning qalbimizda: «Men ko'zlagan maqsadimga albatta erishaman», degan ishonch tuyg'usi paydo bo'ldi. A.Yerimbetov, Q.Ro'zimov, SH.Baymurzinoва, Z.Ibragimova, R.Aminova singari o'qituvchilarimizning bilimdon-u fidoyiliklari esa dastlabki kunlardan oq sezildi.

Men shunday ajoyib kollej talabasi bo'lganimdan faxrlanaman.

Fazilat RAHMATULLAYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
To'rtko'l tumanidagi To'rtko'l
Bank kolleji talabasi

Kim bo'lsam ekan?

Bu savol mening yoshimdagi o'smirlarni juda ko'p o'ylantirishi tabiiy. Axir hademay mustaqil hayotga qadam qo'yamiz...

Men esa bu savolga allaqachon javob topib qo'nganman: liboslar dizayneri bo'lmoqchiman. Yoshligimdan tikuvchilik, rassomlik va dizayn sohasiga qiziqaman. Darslardan bo'sh paytlarimda liboslar eskizini yarataman va shu libosni xuddi rasmdagidek qilib tikishga harakat qilaman.

Inson biror orzu, maqsad bilan yashasa, hayoti yanada go'zalroq, mazmunliroq bo'ladi.

Shunday ekan, barchamiz maqsad bilan yashaylik!

Bugun tahririyatga dizaynerlik ishlarimdan yuboryapman. Ma'qul bo'lsa, gazeta sahifalarida chop etsangiz, juda mamnun bo'lardim.



Xurshida
SULTONOVA,
Xorazm viloyati,
Hazorasp tumani,
Yangibozor qishlog'i



Uyimiz maktabning yonida joylashgan. Shu sababdan, ko'pincha o'quvchilarga duch kelaman. Bir kuni maktabdan qaytyotgan ikki dugonamning suhbat noqahon qulog'imga chalinadi.

– Dillobar, yur, kompyuterga boramiz. Mazza qilib o'yin o'ynamiz.

– Yo'q, vaqtin yo'q, «Kamolot»-ga borshim kerak, keyin to'garagim bor, ayam ishdalar, kechki ovqatni tayyorlashim kerak.

– Yo'-bo', baribir hammasiga ulgurmayсан. – Ulguraman...

Suhbatdan angladimki, demak, Dillobarning kun tartibi bor. Dugonamning esa... Shunda xayolimdan bir so'rov o'ldi: maktabdan qaytyotgan o'quvchining xoyi ninalar bilan band, uning aniq rejasi, kun tartibi bormi? Demak, bugungi suhbatimiz ana shu haqda: siz maktabdan qaytyapsiz...

Tintib-tinchimas Sarvar bilan suhbatlashish biroz qiyin bo'ldi. Sababi, uning bo'sh vaqti deyarli yo'q edi.

Suhbati endi boshlagan ham edikki, uning qo'l telefoni jiringlab qoldi. U er ayrib, telefonga javob berdi.

Avvaliga qo'l telefonidan foydalanгани biroz g'ashimini keltirdi. Suhbat davomida bildimki, unga telefon juda zarur ekan.

– Bir nechta to'garak a'zosiman. Sizsizga boraman. «Tanana» guruhida qo'shig aytaman, «O'zbekim ohanglari» guruhida esa doira chulaman. Mustaqilligimizning 19 yilligi shodiyonlarida bolalar bilan «Sho'x bola» qo'shig'ini kuylatdik.

– O'zgina xirgoyi qilib bering.

– Orzularim osmoncha, Osmon yigit bo'lanam.

Kelajakda albatta,

Polvon yigit bo'lanam.

– Bunga shubha yo'q. Barchasiga ulgurypsizmi?

– Insonda, avvalo, xohish bo'lsa, bas. To'garaklarni o'zim qiziqib tanlaganman. Shuning uchun ham barchasiga ulguraman kerak.

Ustozlarim – Fotima, Zuhra. Nargiza opalar va Ilhom aka juda mehribon.

Men ularni bayramlari bilan qutlayman. Doimo sog'-salomat bo'lishini!

Feruza SOYIBJON qizi.
Suratlar muallifi ZUBAYDA



Sarvar ZOROV,
Sohr Rahimov tumanidagi
243-maktabning 8-sinf
o'quvchisi. «Do-mi-sols» ko'rlit-
tanlovining birinchi darajali
Diplom sohibi. «O'stiro
taronalari» tanlovining
g'olibi.

Mana, maqsad sari dadli borayotgan tengdoshingiz bilan yaqindan tanishdingiz. Sarvar yaratilayotgan imkoniyatlaridan, imtiyozlardan umumiy foydalanib, ustozlari, oila-otafari ishonchini oqlab kelmoqda. Eng asosiysi, yurtboshimiz umid qilgan bizdan-da kuchli, bilimdon va baxtli avlod voyaga yetmoqda.

Siz ham havas qiling va tirat oling. Shunday do'staringiz bilan bizni ham tanishtirib boring.

NURLI

ORZUHLAR

Har kimki hayoldan ohnasa to'lim,
Unga o'rgatolmas hech bir muallim.

Abu Abdullo RUDAKIY



1970-yili Chust shahridagi 4-o'rtta maktabga borgan kunlarim hali-hanuz yodimda. Endigina institutni bitirib kelgan Sabohat opa Turg'unova bizning birinchi ustozimiz bo'lganlar. Hech esimdan chiqmaydi. Biz xuddi jo'jalarga o'xshab, ustoz qayerga borsalar, izlaridan qolmas, ularni yo'qotib qo'yishdan qo'rqardik. Endi eslasam, kulгим keladi.

Hafta tadbir, kitoblarni hujjatlab o'qiy boshlagan kunlarimizning birida Sabohat opa kelajakda kim bo'lishini, bu haqda bir kun o'ylab, erraga ayishini lozimligini ayrib qoldilar. Sinfla qiy-chuv boshlandi. Kim kasmonav, kim dengizchi, mudlim yoki agronom, xullas, hamma kasblarning egasi chiqdi. Men esa tiror nima deyishga ham ulgurmadim. O'sha kuni uyga xafa bo'lib ketdim. Endigina o'ninchi sinfni bitirgan Zebuniso opamga yaxshi kasblarning bari sinfdoshlarim tomonidan bo'lib olinganidan nolidim. Opam esa mening bu holimdan kuldilar, keyin esa jurnalist bo'lgim, eng zo'r kasb shu, deb

maslahat berdilar. Jurnalistik nima ekanligini bilmayman ham bu nomning, jaranglashi menga juda yoqdi. Kechki poy otamdan bu haqda ancha narsa bilib oldim. Ertaasi kuni Sabohat opa har birimizning tanlagan kasbimiz haqida so'rab, alohida dafdariga qayd etib qo'ydi va to maktabni bitirguncha bu narsani eslatib turishlarini alohida ta'kidladilar. Rosidan ham u kishi maktabni bitirguncha har ko'rganlarida, bergan va damizni eslatib turdilar.



Yusuf ABDULLAYEV,
«Tong yulduzi»
gazetasi
bo'lim mudiri

larim birinchi sinfla bergan va'dalarining ustidan chiqqanlar ayon bo'ldi. Ijtimolan, men ham salkam chorak asrdan buyon Respublika matbuotida faoliyat yuritib kelayapman. Bayram arafasida esa Sabohat opa kabi aziz ustozlarim haqida juda kam yozganim ma'lum bo'ldi.

Sabohat opa, Siz va boshqa ustozlar oldida hamisha qarz-dorimiz. Maktab adalimish muqaddas nurxonadan taralgan shu lalar hech qachon so'mmasin, aziz ustozlar!

Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 10-umumta'lim maktabiga borganimizda, maktab rahbari Zulfiya Sarimsoqova bizni boshlang'ich sinf o'qituvchisi Umida Jalilovaning yoniga boshlab bordi. Opa bu o'quv yilida birinchi sinfni qabul qilib olibdi, biroq, har tanaffusda to'rt yil o'qitgan o'quvchilari mehribon ustozning yonidan ketmas ekanlar. Albatta, bu to'rt yillik berilgan mehrning samarasi bo'lsa kerak.



Mehridaryo

– Umida opa, endigina maktabga qadam qo'rgan bolalarni o'qitayotganingizda, nimalarga e'tibor berasiz?

– Avvalo, men har bir bolani maktab partasiga to'g'ri o'tkazishdan boshlayman. Odatda bog'chaga borgan bola bilan bormagan bola o'rtasida tafovut bo'ladi. Shu jihatlarga ham e'tibor beraman. Ko'rgazmali qurollarni qiziqarli qilib tayyorlashga harakat qilaman. Yosh bolaga ichki bir yaqinlik bilan gapirish kerak, bo'lmasa uning maktabga kelgisi kelmay qoladi. Ular orasida do'stona munosabatni yuzaga keltiraman. Bu munosabat o'qish, o'rganishda ham katta yordam beradi. O'quvchilarim juda ko'p savollari berishadi, go'yoki, ustozni dunyodagi eng donishmand odamday. Biz ustozlar ham shunga tayyor bo'lishimiz kerak. Bergan javobingiz noaniq bo'lsa, darrov bolaning ko'zida ishonmagani sezilib qoladi.

Uchinchi sinfda bolaning ruhiyatida burilish yasaladi. Ular bilan bemalol ochiq darslar o'tish mumkin. Ustoz chetdan kuzatib tursa bas, o'zlari savol tuzib, o'zlari javob beraveradilar.

– Ustozlaringizdan qanday o'g'itlar olgansiz?

– Men ustozlarimdan juda ko'p tajriba va bilim o'rganganman. O'zim o'qituvchilar oilasida tarbiya ko'rganman. Birinchi ustozim – dadam Abdumajid

G'afurovning namunali tomonlarini o'zimga singdirganman. Hali-hali esimda, dadam maktabimizda matematikadan dars berardilar. Ilk bor sinfimizga dars o'tishga kirganlarida, «dada» deb murojaat qilganman. O'shanda, dadang uyda qolgan, ustoz degin, deganlar. Shu-shu maktabda ustoz deydigan bo'ldim. Dadam sinfdagi o'quvchilarni qanday ko'rsa, meni ham shunday ko'rardilar. Chunki sinfdoshlarim o'zining qiziga «5» baho qo'yarmikan, hammadan yaxshi muomala qilarmikan, deb qarab turishardi. Dadam bilimimga yarasha baho qo'yardilar, uyda nimanidir tushunmasam, tushuntirib berardilar, lekin hech qachon masala yoki misolni o'zlari yechib bermaganlar.


Hozir mening ham to'rt nafar farzandim bor. O'tgan yili rahbarlik qilgan sinfimdagi o'g'lim o'qidi. Men ham bironta o'quvchidan o'z bolamni ortiq ko'rganim yo'q. Bor mehrimni, mehnatimni shu bolalarga sarfladim. Shuning uchun o'qitgan o'quvchilarim atrofimdagi parvona bo'lishayotgandir.

Yurtimizda qanchadan-qancha mehridaryo ustozlarimiz bor. Biz ulardan biri – Umida opa Jalilova haqida hikoya qildik.

Bolajonlarimiz baxtiga ustozlarimiz hamisha sog'omon bo'lsinlar, bilim chirog'i bilan yo'llarimizni yoritib, kelajagimizni yanayam nurafshon qilsinlar.

Barno RUSTAMOVA

Ustoz ijodi



LAYLAKVOYNING JAVOBI

Laylak ko'rdim
Chorsuda.
O'ynab yurar
Osuda.

Dedim: – Tutun –
Zahar-da,
Diqqinafas
Shaharda.

Senga barra
O't qayda?
Yayrasang-chi
To'qayda.

Deydi: – Menga
Qoida
Aytgan katta
Dodamlar:

– Yurgin, – degan
Tinch joyda,
Yaxshi bo'lsa
Odamlar.

Xudoyberdi KOMILOV,
Urgut tumanidagi
97-maktab direktori



(Boshi o'tgan sonda)

BOTIR KIM?

– Jon Jo'ra, nega uya vazifani bajarib kelmading?
– Kitobimni kuchugimiz g'ajab tashlabdi.
Gurr kulgi.
Ustoz Nargizaning keng peshonasiga tushib turgan bir tutam sochini ko'tardi:
– Basharangga nima qildi? Qoshing kuyibdimi?
– Raketa yasamoqchi edim, opajon!...
– Opang uyda, bu yer maktab!...
– Kechiring, ustoz!.. Haligi, raketa yasamoqchi edim, porox o'z-o'zidan portlab ketdi.
– Hay, bu nima degan gap. Voy o'lmasam, sen qanaqa bolasan o'zi? Hali portlatishni ham bilaman, degin! Shoshma, ota-onang bilan gaplashib

qo'yamasam... O'tir joyingga, he, bola bo'lmay... bemaza!

Jon Jo'ra yuragida alam yonib, tovonlari zirqiradi. Hamma yaxshi, u esa yomon. Yomonlarning yomoni! Ikki-chi! O'sha yetim bola – Botir aybdor hammasiga. Raketa yasayman, deb kechgacha ovora bo'ldi. Yasashga yasadi, lekin Botir nimadir qildi shekilli, uchmadi, gugurt chaqqan zahoti portlab ketdi.

Yaxshiyamki, boshiga otasining tankchilar qalpog'ini kiyib olgandi, aks holda, bundan battar ahvolga tushardi.

Qo'ng'iroq chalindi. U kitob-daftarlarini yig'ishtirib, sumkasiga joyladi. Qo'ng'iroq deganlari jonning huzuri. Ilgari darslardan faqat a'lo baho olib yurgan paytlarda qo'ng'iroq esiga ham kelmasdi. Botir paydo bo'ldi-yu, darslardan beziydigan, biror gap esida turmaydigan bo'ldi-qoldi. Uh, charchab ketdi.

Muallima xayrlashib chiqqan zahoti u sumkasini qo'ltiqlab qochib qoldi. O'rtloqlari izza qilishadi. Yana ikki olding, sinfni orqaga tortayapsan, deb dakki berishadi. Dakki eshitishga uning toqati yo'q. Qaniydi, shunday narsa ixtiro qilsaki, unga hamma voqealarni oldindan aytib tursa! Mazza bo'larmidi? Muallimaning miyasidagi gaplarni ham zumda bilib olib, darslarda tag'in nuqul besh olib yurardi. Ko'ribsizki, tez orada u ham a'lochilar safidan o'rin olib, balki rasmi «Tong yulduzi»

gazetasida chiqarmidi?! Eh...

Osmonni pag'a-pag'a bulut bosgan, etni junjiktiruvchi shamol esadi. Chap tomonda paxsa devorlar ortidan oppoq qalpoq kiygan och ko'kimtir tog' ko'zga tashlanadi. Kecha biz yomg'ir yoqqan edi. Namli yo'ldan tuproq hidi ko'tarilib, dimoqqa uriladi. Jon Jo'ra burnog'i yili onasining jar kesak yeganida, shunday hid sezgan edi. Kesakning nimasi yaxshi? Ammo hidi unga yoqadi. Lekin yegisi kelmaydi. Kesakni ham yeydilar, deydi o'zicha.

Yo'l chetidan katta ariq to'lib oqmoqda: zilol, tip-tiniq suvga tikilarkan, yuragining langillab yonayotganini, chanqaganini his etib, qo'lidagi qora sumkasini yelkasidan olib, ariq bo'yidagi yashil maysa ustiga tashladi-da, tizzalab o'tirib, hovuchiga suv oldi. Suv oppoq edi. Ariqda havorang ko'rinadi. Suv oppoqmi yo ko'k rangdami? U yutoqqancha suvni og'ziga tutdi. Biram shirin ekanki!.. U yana ichdi. Yana va yana. Yuragining tafti bosilib, oyoqlariga jon kirib, ko'zi ravshan tortdi. Muzdek suv, mazza. Ishqilib, qornini og'ritmasin.

Uzoqdan, hov yo'lining oxirida oq-qora, qizil, sariq kiyingan bir gala o'quvchilar ko'rindi. Yolg'iz qaytayotganini ko'rib, o'shalar ham masxara qilishi mumkin. Ke, ko'zlariga ko'rinmagan ma'qul. U yo'lni teskari oldi. Bu yo'l adirlik yonlab o'tadi. Uyiga sal uzoq bo'lsa-da, tinchroq, miyani suyultiradigan ezmal ham uchramaydi. Hozir uning hech kim bilan gaplashgisi yo'q. Obro'si bir tiyin bo'ldi. Nargizaning yuziga qanday qaraydi. Tunov kuni matematikadan ikki olganda, shu qiz uning yonini olgan edi.

T.HAYIT

(Davomi bor)



TOG'DEK KO'TARILGAN KO'NGILLAR

Aziz bolalar, Siz tarixiy shaxslar haqida ma'lumotlar berib borishimizni so'rab, ko'plab xat-xabarlar yo'llayapsiz. Ana shularni hisobga olib, bugun siz yaxshi bilgan alloma Muso Xorazmiyning uch muhim safari haqida so'z yuritamiz.

Bilasizki, Muso Xorazmiy algebra fanining otasi hisoblanadi. Hozirgi zamon matematikasining asosiy atamasi «algoritm» al-Xorazmiy ismining lotincha yozilishi va talaffuz qilinishidan kelib chiqqan. Ma'lumki, Muso Xorazmiygacha, ya'ni uning tomonidan «Al-jabr val-muqobala» asari yaratilib, algebra faniga asos solingunga qadar yer yuzida rim raqamlaridan foydalanilgan. Bu esa savdo-sotiq, meros taqsimlash va boshqa hisob-kitob ishlarida qiyinchilik tug'dirar edi. Shu bois, Muso

XORAZMIYNING



Xorazmiy Hindistonda iste'molda bo'lgan o'nlik tizim raqamlarini (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9) soddalashtirib, ixchamlashtirib, hayotga tadbiiq etdi. Shu bois ham buyuk alloma bobongizning nomi butun dunyoda e'zozlanib tilga olinadi.

U milodiy 780-yilda Xivada tavallud topdi.

Xorun ar-Rashid zamonida (813-833-y.) hozirgi Iroq davlatining poytaxti Bag'dodga taklif etiladi. Buyuk vatandoshimiz o'z mavqeiga ko'ra, Ma'mun akademiyasiga rahbarlik qiladi. Ilmiy izlanishlar olib borish hamda nodir kitoblarni o'rganish uchun uch marta safarga yuboriladi.

Birinci safar 830-yili Hindistonga uyushtirilib, uzoq izlanishlar natijasida ko'plab yangi ma'lumotlar to'planadi, xususan, xuddi shu safar davomida u hisoblash qoidasiga doir ma'lumotlarni olib kelib, ularni o'zining arifmetik asarida aks ettiradi va hisob-kitob bobida qulaylik yaratadi.

Bu o'rinda shu narsani e'tiborga olingki, bolalar, el-yurt, insoniyat baxt-saodati uchun kuch-qudrati, bilimi va hayotini ayamagan inson borki, uning mehnati zoye ketmaydi, nomi esa mangu yashaydi. Bunga buyuk Xorazmiy bobongizning hayoti misoldir.

Muso Xorazmiy boshchiligidagi olimlar ikkinchi marta Rum (Vizantiya) mamlakatiga yuboriladi. Safardan ko'zlangan maqsad – Efes shahri yaqinidagi g'or bilan bog'liq rivoyatga aniqlik kiritish edi.

Bu ishni Xorazmiy bobongiz ko'ngildagidek me'yoriga yetkazgan edi, bu alohida mavzu bo'lgani uchun ularni o'zingiz izlanib-o'rganasiz, degan umiddamiz.

Uchinchi safar Xazariya mamlakatiga uyushtirildi. Tarixda shunday davlat bo'lgan. Muso Xorazmiy boshchiligidagi olimlar Itil (Volga daryosining o'sha paytdagi nomi) daryosining quyi oqimi, Kaspiy dengizining shimoliy va shimoliy-g'arbiy qirg'oqlarini egallagan bu mamlakatda ham katta izlanishlar olib borgan.

Muso Xorazmiy bobongiz hozirgi Bag'dod shahrining Quzrabul mahallasida yashadi va Shammosiya rasadxonasida astronomik kuzatishlar olib bordi. U 850-yilda Bag'dodda vafot etdi.

O'z muxbirimiz

Xabar qilganimizdek, joriy yilning 16-17-sentabr kunlari poytaxtimizdagi Respublika imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan kollej sport majmuasida VII Parolimpiya o'yinlari sport musobaqalari bo'lib o'tdi.

Unda Andijon, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari hamda Toshkent shahridagi «Muruvvat uy»larida tarbiyalanayotgan jami 72 nafar sportsevarlar mini futbol va estafeta o'yinlarida o'zaro bellashdilar.

IJOBIY O'ZGARISHLAR SARI

Yunus ALIMJANOV, Toshkent shahar Parolimpiya o'yinlari raisi:

– Yetti yildan beri an'anaga aylangan «Muruvvat uy»larida tarbiyalanayotgan imkoniyati cheklangan bolalar o'rtasida mazkur Parolimpiya o'yinlari o'tkazib kelinyapti.

Bunday musobaqalarni tashkillashtirishdan maqsad, avvalo, nogiron bolalarni jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlariga qiziqitirish va nogironlar sportini rivojlantirishdan iborat. Eng quvonarlisi, sport musobaqalari orqali bolalarning jismoniy va ruhiy o'sishida ijobiy o'zgarishlar ro'y beryapti.



YETTI YIL ORASIDA

16 nafar bola reabilitatsiya orqali to'laqonli hayotga qaytarildi va o'z oilasi safiga qo'shildi.

38 nafar yotib qolgan bolalar o'zgaralar yordamisiz, asta-sekin harakat qila boshladi.

15 nafar bola o'zi mustaqil yura boshladi.

79 nafar bola suzishni o'rgandi.




CHIN SARDOR

E'tiborimizni poytaxtimizdagi 1-sonli «Muruvvat uyi»da tarbiyalanayotgan Stas Stanislav tortdi. U har bir bellashuvda jamoasi uchun bor kuchini ishga soldi. Ustozi aytgandek, Stas chindan ham jamoaning chin sardori ekan.

TILLAJON JUDA CHAQQON

Bellashuvlarda Toshkentdagi 2-sonli «Muruvvat uyi»ning tarbiyalanuvchisi Tillajon Karimov g'oliblikni qo'ldan bermadi. Barmoqlari bo'lmasa-da, xuddi sog'lom bolalardek harakat qildi. U bilan suhbatlashganimizda, kelajakda futbolchi bo'lishini aytdi.



SOVG'A

Sofiya SHAMSIYEVA, Qashqadaryo viloyatidagi «Muruvvat uyi» tarbiyachisi:

– Maskanimizda 200 ga yaqin bolalar tarbiyalanadi. Bolajonlarimizning quvonchi cheksiz, hademay yangi binoga ega bo'lamiz.



Nurxon OTAJONOVA, Farg'ona shahridagi «Muruvvat uyi»da hamshira bo'lib ishlaydi. Ikki hissa mehr ko'rsatib ishlash, albatta oson ish emas.



Musobaqalar yakunida bolalarning intilishlari munosib baholandi. Toshkent shahar 2-sonli «Muruvvat uyi» jamoasi birinchi, Andijon jamoasi ikkinchi, Toshkent shahridagi 1-sonli «Muruvvat uyi» va Farg'ona shahri jamoasi uchinchi o'rinni egallashdi. Bundan tashqari, «G'alabaga intilgan jamoa», «Eng iqtidorli futbol jamoasi» hamda «Eng yosh ishtirokchi» nominatsiyalari bo'yicha ham g'oliblar aniqlandi.


Esdalik sovg'alariga ega bo'lib, ko'ngli tog'dek ko'tarilgan bolalar o'z maskanlariga qaytar ekanlar, hamon musobaqa shukuhidan zavqlanardilar.



O'ZINGNI SINAB KO'R!

Topishmoq

Bu binoning sakkiz eshigi bor,
Har bir eshik ortida
Sakkiztadan xonasi.
Kirib xonalarni aylansangiz –
Ajab, ranglari mos:
Bir oqqa bir qorasi.
Bu nima, toping-chi, bolalar?!



40=?

1. Qirq kun necha oy, necha hafta?
2. Qirqta qo'lda nechta barmoq bor?
3. Qaysi to'rtta sonlarni ketma-ket ko'paytirib, 40 hosil qilish mumkin?

Jizzax viloyatining Baxmal tumanida hech bo'lganmish, uning betakror tabiati, so'lim manzaralaridan zavqlanganmisiz, zilol suvlari, musaffo havosidan mehringiz qonib sipporganmisiz? Ha, deysizmi, unda juda baxtli inson ekansiz!

Tahririyatimizga tabiat manzaralari, jonivorlar, rang-barang gullar rasmini chizib yuborgan Sho'yshoq qishloq idagi 72-maktabning 7-sinf o'quvchisi Jalolbek Damaboyev esa ana shu tumanda yashaydi. Uning bolalikdan tasviriy san'atga mehr qo'ygani sira ajablanmadik. Shunday jannatmakon go'shada yashab turib, qo'liga mo'yqalam olmaslik mumkinmi, axir?!

Jalolbek
rasm
chizdi



Bugungi o'qituvchi – fidoyilik timsoli. Bundan o'n uch yil avval ta'lim sohasida keng ko'lamlı islohotlar boshlanganida, chetda turib uning samara berishini ertakdek qabul qilganlarga o'sha oddiy o'qituvchi o'z mehnati bilan to'g'ri javobni aytdi, ta'lim-tarbiya mo'jizalar yaratishni isbotlab berdi. Bu bilan muallim barchaga xalqimizning bunyodkorlik kuchiga tayanib, qabul qilingan oqilona qarorning totli mevasini ulashdi.

Qishloq joylarda qurilayotgan maktablar o'sha hududdagi eng ko'rkam, salobatli, zamonaviy so'nggi rusumdagi binolar bo'lib borayotgani o'qituvchilar, ot-onalar qatorida o'quvchilarning ham qalbini g'urur-iftixorga to'ldirmoqda. Bu g'urur ularning ko'nglida bunyodkorlik tuyg'usini, vatanparvarlik hissini uyg'otadi. Ularni yaratilgan qulay sharoitlarga munosib bo'lishga undab, mas'uliyatni oshiradi. Hamisha amaliy harakatlarga, ijobiy natijalarga chorlaydi.

Ezgulik timsoli

Bugun muallim o'quvchi bilan ishlashda o'ziga xos yondashmoqda. Darslarda mavzu yuzasidan izlanayotgan haqiqatni, yechimni o'quvchilarga shunchaki aytib o'tmaydi. Aksincha, u o'quvchiga o'sha haqiqatni topishni o'rgatsa, foydaliroq bo'lishini yaxshi anglaydi.

«Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir», degan edi ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy.

Biz ustozlarimizni hurmat etish bilan birgalikda, ajdodlarimiz ilm-u hunarini kelajak avlodga o'rgatib kelayotgan muallimlarimiz bilan faxrlanamiz. Zero, siz aziz o'qituvchilar, jamiyatning eng faol a'zosi, bunyodkoriga aylana oldingiz. Yana bir bor qutlug' bayram bilan chin dildan muborakbod etamiz.

Anvar MIRZO

JURNALISTLAR KUTUBXONASI

O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondida jurnalistlarning ommaviy axborot vositalari va turli sohaga oid ma'lumot to'plashiga ko'maklashish maqsadida zamonaviy kutubxona ishga tushirildi.



Kutubxona zamonaviy kompyuter va zarur texnikalar bilan jihozlangan. Unda turli sohaga oid ma'lumotlar bazasi, o'quv qo'llanmalari va adabiyotlar mavjud. Shuningdek, undagi internet tarmog'i bir paytning o'zida yigirmadan ziyod kitobxona xizmat qilishi mumkin.

Ayni kunlarda kutubxonada jurnalistik mavzuga taalluqli yuzdan ortiq o'quv qo'llanmalarining elektron nusxalari tayyorlangan.

Mazkur kutubxonani tashkil etishdan maqsad, jurnalistlar, ayniqsa, sohaning yosh xodimlarining intellektual ehtiyojlarini qondirish, bosma OAV va axborot agentliklarini keng qamrovli hamda tizimli axborot bilan ta'minlashdan iborat.

OLMOS

GIYOHVANDLIK – ASR VABOSI HAMMAMIZNING BURCHIMIZ

Giyohvandlikni asr vabosi deb bejiz aytishmaydi. Bu ofatning xavfliligi shundaki, u – millat tanlamaydi, chegara bilmaydi, u yetib bormagan qit'aning o'zi yo'q. Ayniqsa, dunyo miqyosida yoshlarning bu balo domiga tortilayotgani g'oyat achinarlidir.

Ana shu illatga qarshi kurashishda biz ham ozmi-ko'pmi, hissamizni qo'shishga harakat qilyapmiz. Masalan, qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlarida yoki o'quv muassasalari, maktablar hamda korxonalarda «Giyohvandlik – asr vabosi» mavzuida chiqishlar qilyapmiz, subhatlar uyushtiryapmiz. Gapimiz quruq bo'lmasligi uchun ommaviy axborot vositalarida chop etilgan ma'lumotlardan unumli foydalanyapmiz.

Qayd etish lozimki, zahri qotilni muntazam iste'mol qilgan kishi oxir-oqibatda o'z odamiylik qiyofasini yo'qotadi. Ma'lumotlarga qaraganda, hozirgi kunda sodir etilayotgan jinoyatlarning 75 foizi aynan narkotik moddalar bilan bog'liq holda sodir etilar ekan.

Asr vabosi hisoblanmish giyohvandlikka to'siq qo'yish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shu bois, unga turli choralar bilan kurashish hammamizning burchimizdir.

Nazokat IKROMOVA,
Zangiota tumani, 2-Davlat notarial
idorasi notariusi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Gulyuz ORIFJONOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 33324
Buyurtma N: J 164